

BOLA TARBIYASIDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIMNING TUTGAN O'RNI

Soyibnazarova Sitora Abdunazarovna

Samarqand davlat chet tililar instituti

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ochiylova Noila Farmonovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola tarbiyasida oila muhiti va ota-ona munosabatlariga oid masalalar va maktabgacha ta'limning o'rni qay darajada ekanligi haqida ma'lumot olasiz. Maqoladan bo'lajak mutaxassislar o'z kasbiy faoliyatiga oid intellektual salohiyatini tarkib toptirish bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Oila muloqot, ilk bolalik va maktabgacha yosh, shakllantirish, shaxsiy muvaffaqiyat, tarkib toptirish, ichki va tashqi ta'sirlar, omillar, ota-ona, pedagogik-psixologik bilimlar, ijtimoiy yaqinlik.

KIRISH

"Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o'z farzandlari baxtu-saodati, faz-lu kamolotini ko'tish uchun butun hayoti davomida kurashadi, o'zini ayamaydi. Bola tug'ilgan kundan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlarbola zuvalasini shakllantiradi. End muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi".(I. A. Karimov) Kelajagi buyuk davlatimizning poydevori mustahkamligini ta'minlash maqsadida hukumatimiz tomonidan sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga etkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilga. Bola shaxsini shakllantirish, oilaviy munosabatlar, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish doimo insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lgan.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'g'in hisoblansa-da, u shaxsni to'liq tarkib toptira olmaydi. Shunday vaziyatda maktablarga ehtiyoj seziladi. Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, didiga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri

hisoblanadi. Oilada kundan-kun kamolga yetib borayotgan farzand atalmish ne'mat eng avvalo, shu oilaning azaliy qadriyatlariga urf- odat va an'analarga to'la amal qilmog'i, qolaversa, ota-onaning o'zi farzandiga ibrat bo'la olishi lozim. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Estetik, axloqiy va tarbiyaviy sifatlar kundalik hayot ehtiyojiga aylanib, ular oilaviy ihtimoiy tariya orqali tarkib toptiriladi va kamol topadi. Oilaviy tarbiya mazmunining tashkil etirishida dastlabki ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi deb ko'p bora takidlab o'tilgan.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda pedagogika va psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so'ngra maktabgacha ta'lim muassasida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to'laqonli shakllanish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda insonning shaxs sifatida shakllanishida uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblangan ta'lim muassasasi muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha Ta'lim Muassasasining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilarli amalga oshiruvchi ta'lim- tarbiya jarayonini olib borishdir. Ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariy jihatlarini o'rganish oily pedagogik ta'limda muhim amliy ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha Ta'lim Muassasasi bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi. Maktabgacha Ta'lim Muassasasi o'z navbatida ota- onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usularidan biridir. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan: bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida.

Ingliz filasofi DJ.Lokkning fikriga ko'ra "bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo'lgan oq qog'ozga o'xshaydi" bu oppoq qog'ozni yaxshi narsalar bilan ham yomon narsalar bilan ham to'ldirish ota-onaga bog'liq. Bola tarbiyasida ota-ona birdek masulyatga ega bo'lishi lozim. Faqatgina ona yoki ota tarbiyasi bola tarbiyasining shakllanishida noto'g'ri tasir ko'rsatishi ham mumkin. Hozirgi kunda ajralishlar soni keskin ko'payib ketgan bu hol bola tarbiyasiga ham tasir ko'rsatmay qolmaydi. Oilada yolg'iz ona farzandini tarbiyalasa yoki ota yolg'iz tarbiyalasa, atrofda munosabatlar bolada ota-onaga nisbattan ishonchsizlik, nafrat tuyg'ularini shakllantiradi. Natijada bolaning ko'ziga go'yoki uni hech kim tushunmaydigandek o'zini yolg'iz his etadi.

Barcha odamlarga nisbattan nafrat tuyg`ulari shakllanib boradi. Kattalar bilan bo`ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko`proq ma`lumot oladi.

Kanada psixolog A.Banduraning fikricha, bola ilk davrlaridagi shaxsiy muvaffaqiyatlari o`zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog`liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi. Bola o'zi uchun ideal inson qilib o'zgalarni emas ota-onasini ideal inson sifatida ko'rishi kerak. Avvalambor bola tarbiyasida oila mustaxkamligi birinchi o`rinda turadi. Onamiz bizni odobli, tartib-intizomli, mehribon, ozodalikka rioya qiladigan, kattalar va kichiklarga hurmatda bo`ladigan qilib tarbiyalasa, otamiz esa bizni masuliyatli, qatiyatli, kuchli, o`ziga ishonadigan, sabr-bardoshli qilib tarbiyalaydi. Bola boshqa muhitga tushib qolganida kattalarga hurmati, dunyoqarashi, har qanday vaziyatda o`zini tuta ola bilishi oilada ko`rgan tarbiyasini yuzaga keltirib chiqaradi. Albatta bola tarbiyasining shakllanishida ota – ona asosiy rolda bo`lishi lozim. Bolaning hayotdagi eng birinchi ustoz bu uning ota-onasi, oilasi bo'ladi. Oiladagi muhit qanchalik yaxshi bo'lsa bolaning xulq-atvori, boshqalar oldida o`zini tutishi, odobi yaxshi shakllanib boradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, haddan tashqari qattiq qo`llik qilmasdan yaxshi yo`l bilan tushuntirsa va bu ish noto`g`ri ekanligini ta`kidlasa bola boshqa bu ishni takrorlamaydi. O`zbek xalqi juda ham bolajon xalq bo`lib, bolaning tarbiyasiga alohida e`tibor qaratadi, o`qib bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilganiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Kelajak avlodni barkamol ablid bo`lib ulg`ayishida oila muhiti, ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini yetarli bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): “Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir”, deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta'kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg`ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg`usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl

mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan.

Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

- odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

- farzandingizga o'zgalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajirat:

1."Tarbiyaning zamoni".

2."Badan tarbiyasi".

3."Fikr tarbiyasi".

4."Axloq tarbiyasi"

haqida hamda uning ahamiyati to'g'risidagi fikr yuritiladi. Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim" va " Oila" nuqtai- nazarida shakilanib boradi. Biz oilani " davlat ichra kichik davlat" - deb aytamiz.Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat- oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorulfunini bo'ladi. Shu sababli ota-onalar farzandlarining birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota-onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Aslida bola tarbiyasi ota-onaning jamiyat oldidagi fuqorolik burchi va davlat oldidagi ma'suliyati hamda qarindosh-urug'lar oldidagi

javobgarligi. Shuning uchun ham ota-ona obro'si farzand tarbiyasida ma'naviy ozuqa bo'ladi. Bu ma'naviy ozuqa bola tarbiyasida "ufq" ni ko'zlab ish tutushda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota-onalar ijobiy o'rnak bo'ladigan kishilardir, ya'ni obro'li ota-onalardir. Bunday odamlar o'z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maktabgacha ta'limda ham e'tibor beradiga aqili odamlar bo'ladi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchisi insonga nasliy yo'l bilan beriladigan irsiy omillarning ta'siridir. Shunday qilib, insoning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'limning ham roli nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi.

XULOSA

Biz oila ma'naviyati haqida fikr yuritar ekanmiz, xulosa o'rnida uning ehtiyoj, manfaat va mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq yana bir jihatini, ya'ni tarbiya jarayonida yoshlar va o'smirlarning ruhiy ehtiyojlarini inobatga olishni ham unutmaslik kerak. Ayni mana shu ehtiyojlar tufayli, ya'ni oila va maktab bilan birgalikda olib boriladigan ishlar samarali ancha yuqori bo'ladi. Shundan kelib chiqqan xolda har bitta sergak tarbiyachi o'smurlarning yosh xususiyatidan kelib chiqib unga to'g'ri ta'sir eta bilishi lozim. Umuman, ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin, tarbiyachi-o'qituvchi yuksak pedagogik, psixologik va metodologik tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan holda, ularning yosh xususiyatini inobatga olib ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishlari, shu bilan birgalikda o'qituvchi o'quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko'zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi yetakchi tamoyillaridan o'rinli foydalanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, Oilaning ham birdek xissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim-tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakillantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Egallagan tarbiyani esa albatta jamiyat va o'zaro munosabatlarda qo'llaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmini.
3. Bekov.Sh.J "Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatga kirishning psixalogik jixatlari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy amaliy anjuman.Farg'ona, 2020.B.201- 203.
4. MuhammedovaD.G' , Mullaboyeva N.M, Rasulov A.I " Umumiy psixalogiya". TOSHKENT-2017
5. Zakirov, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKILLANTIRISH TEXNALOGIYALARI".(2020): 543- 545
6. Samarqand Qishloq Xo'jalik Instituti. Pedagogika Tarixi va G'oyalari (O'quv uslubiy qo'llanma). Samarqand-2014. 14- bet.
7. O.U Hasanboyev, M.X Tojiyeva, SH.K Toshpo'latov. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. "ILM ZIYO",2011.- 184 bet
8. Kushatova Maftuna Maxamadali qizi Mavzu: "Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning iyyimoiy psixalogik xususiyatlari. Bitiruv malakaviy ish. Andijon- 2017.